FARG‘ONA VILOYATI QUVASOY SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2024 - yil 30 - may 132-11-167-Q/24 Quvasoy shahar hokimligi

Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida shahardagi umumiy o‘rta ta’lim maktablariga hudud va mikrohududlarni biriktirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 5-bob, 39-bandiga asosan hamda shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining 2024-yil 6-maydagi 04/515-sonli murojaatini ko‘rib chiqib, Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi Qonunining 6-, 25-moddalariga muvofiq,

Q A R O R Q I L A MA N:

1. Shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining 2024-yil 6-maydagi “Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida shahardagi har bir ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to‘g‘risida”gi 04/515-sonli murojaati inobatga olinsin.

2. Shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi umumta’lim maktablariga hudud va mikrohududlarni biriktirish jadvali ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar hokimi o‘rinbosarlari A.Mamajonov, Mahallalar uyushmasi shahar bo‘limi (I.Dadajonov), shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (E.Kuziyev), mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

har bir maktabga biriktirilgan mikrohudud sxemasini tuzish va mazkur sxemada mikrohududning aniq chegarasi, uning tarkibiga kirgan ko‘cha, tor va berk

ko‘chalardagi barcha uylar, xonadonlarni qamrab olish vazifasi yuklatilsin.

4. Shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (E.Kuziyev)ga:

shahar hududida yashovchi maktab yoshidagi bolalarni o‘qishga to‘liq jalb etish bo‘yicha ishchi guruh tashkil etish;

har bir maktabga biriktirilgan mikrohudud sxemalarini barcha o‘rta ta’lim maktablariga yetkazish va joylardagi mahalla fuqarolar yig‘ininlari bilan ota-onalarga tegishli tushuntirish ishlarini olib borish;

shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limida tashkil etilgan ishchi guruhning mas’ul xodimlari tomonidan qabul qilinadigan statistik jadvallar monitoringini olib borilishini nazorat qilish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan shahar hokimining 2019-yil 15-avgustdagi 3639-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari A.Mamajonov zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **Z.K.To'rakulov**

Quvasoy shahar hokimining
2024-yil 30-maydagi
132-11-167-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi har bir ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish jadvali

№	Muassasalar	Hududi
1	1- umumiy o‘rta ta’lim	Soy bo‘yi MFY
		Zebuniso MFY
		Navoiy MFY
2	2- umumiy o‘rta ta’lim	A.Temur MFY
		Xuvaydo MFY
		Cho‘lpon MFY
3	3- umumiy o‘rta ta’lim	A.Navoiy, M.Ulug‘bek, H.Olimjon, Cho‘lpon MFY
4	4- umumiy o‘rta ta’lim	Bog‘bon MFY
5	5- umumiy o‘rta ta’lim	Bog‘bon MFY
6	6- umumiy o‘rta ta’lim	Pakana MFY
7	7- umumiy o‘rta ta’lim	Mo‘yan MFY
8	8- umumiy o‘rta ta’lim	Kokilon MFY
9	9- umumiy o‘rta ta’lim	Pakana MFY
10	10- umumiy o‘rta ta’lim	Polmon MFY
11	11- umumiy o‘rta ta’lim	Yuqori Muyan MFY
12	12- umumiy o‘rta ta’lim	Lashkar MFY
13	13- umumiy o‘rta ta’lim	Valik MFY
14	14- umumiy o‘rta ta’lim	Pastki Valik MFY
15	15- umumiy o‘rta ta’lim	Nayman MFY
16	16- umumiy o‘rta ta’lim	Sufon MFY
17	17- umumiy o‘rta ta’lim	Qalacha MFY
18	18- umumiy o‘rta ta’lim	Arsif MFY
19	19- umumiy o‘rta ta’lim	Qo‘chqorchi MFY
20	20- umumiy o‘rta ta’lim	Namuna MFY
21	21- umumiy o‘rta ta’lim	Do‘stlik MFY
22	22- umumiy o‘rta ta’lim	Bo‘ston MFY
23	23- umumiy o‘rta ta’lim	Yangi Obod MFY
24	24- umumiy o‘rta ta’lim	Yoshlik, Hamdo‘stlik MFY
25	25- umumiy o‘rta ta’lim	Isfayramsoy MFY
26	26- umumiy o‘rta ta’lim	Qo‘chqorchi MFY
27	27- umumiy o‘rta ta’lim	Kokilon MFY
28	28- umumiy o‘rta ta’lim	Bo‘ston MFY
29	29- umumiy o‘rta ta’lim	H.Olimjon, Guliston, M.Ulug‘bek, Ziynat MFY